

CHO'LPON IJODIGA SAFAR

*S.S.Hasanova**BuxDUPI "O'TA" yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Cho'lpon xalqimizning ardoqli adibi, haqiqat kuychisi, milliyligimiz timsolidir. Uning asarlari erkka chorlovchi, madaniyatimizni ko'kka ko'targuvchi qomusdir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: adib, timsol, kalimago'y, milliy qarash, er yigit, madaniyat, or-nomus, haqiqat, hayo, ibo, nonvoy.

Sof o'zbek tilida she'r, hikoya, qissa va romanlar yozishga o'zida kuch topa olgan buyuk ijodkor Cho'lpon ijod qilish uchun kuchni tashqaridan emas balki, o'zbek xalqidan izladi, ularni o'rgandi, tahlil qildi. Cho'lpon o'z asarlarida milliy tuyg'ular va milliy qarashlarni aks ettiradi. Lekin u faqat o'zbek xalqinigina emas dunyoning ko'p elatlarining madaniyatini o'rgandi. Hozir biz tahlil qilmoqchi bo'lgan hikoya xalqimizning er - yigitlariga xos bo'lmagan xususiyat haqida.

Bu hikoya yigirmanchi asrning yigirmanchi yillarida yozilgan bo'lib, o'zbek adabiyotidagi lirik asarlarning dastlabki mumtoz namunasi. Hikoyadagi voqealar O'lmas ismli yigit ko'chada non sotib kasal onasini boqish dardida yurgan bir qizni aldab nomusiga tegishdan boshlanadi. Voqea bo'lib o'tgan joy o'sha davr talablariga mos qilib qurilgan ichki va tashqi hovlidan iborat uy edi. So'fi shom namoziga azon autgach yigit turib qizning oldiga keladi. Bu holatni ijodkor juda mahorat bilan tasvirlaydi. "Yigit kelganda qiz ko'zi ochiq, ezilgan, behol ... cho'zilib, xayollanib yotar edi. Bu paytda erkak mag'rur zaharli va sovuq kulish bilan qizga qarab turar edi 1". Bo'lib o'tgan ishdan qiz juda tushkun ahvolga tushib qoladi. Yigit qizga nisbatan kinoya va zaxarxandalik bilan javob qaytarib yarasini yangilayveradi. Hatto qiz iymonsiz, razil ekansiz dagan haqoratlariga javobam bemalol kulib, Oyim sizga nima bo'ldi? Musulmon, kalimago'y odamni iymonsiz deysizmi? 1 Yigirmanchi asr o'zbek hikoyalar Antologiyasi 21- bet

Nima gunoh qildik deya achchiq so'zlar aytadi. Bu holatdan ko'rinib turadiki O'lmas qilgan ishidan zarracha uyat, aybdorlik tuyg'ularini his qilmaydi. Bundan ko'rinib turadiki yigit tuban, razil, pastkashdir. Bu hodisani Cho'lpon o'z usulida tasvirlaydi. "Dengiz shu qadar buyukligi bilan hamma vaqt qirg'oqlardan yengiladi. Achchig'i kelganda, g'azabi qaynaganda zo'r-zo'r to'lqinlar, kichik - kichik mavjlarni qirg'oqlarning tosh - metin gavdasiga qarab otadi. Qirg'oq, yuqorilarga ko'tarilib ketgan marmar qirg'oq pinagini buzsa! Bechora to'lqinlar, mavjlar sinib mayda- mayda bo'lib, yana dengizning ko'ksiga tushadi. Dengiz ularni yana silab -siyrab boshini yerga qovushtirib, to'plab, yana qirg'oqqa o'tadi. Yana bo'linish, yana parchalanish ... Tuganmas olishish!" (O'zbek antologiyasi 40-bet). Albatta dengiz kuchli lekin qirg'oqlar oldida ojiz. Kurashda doimo qirg'oq yengib chiqadi.

Qiz uyga kelganda onasi o'lib tushagida edi. Bechora ayol o'ziga atalgan ovqatni yemasdan qiziga qoldiradi. Ammo qizi endi bunday mehrga loyiqmas deb

bilar, o'zidan jirkanardi. Ona uzoqqa bormadi, vafot etti. Qizning bu holga tushganini ham barcha bildi. Ikki marta turmushga chiqdi, lekin, o'xshamadi. Oxirida qizning bisotida singan qalbi, xo'rlangan hayoti qoldi xolos.

Aybdor sud qilindi. Lekin zarracha qo'rquv, afsus-nadomatdan, vijdon azobidan asar ham yo'q edi. Qizni so'zga chaqirganlarida qiz gapirolmadi, o'zini oqlolmadi, fiklari, xotiralari mavhumligicha qoldi. Ammo barcha tinglovchilar voqeani tushishdi, anglashdi.

Hayot beshavqat. Insonlarga rahm qilmaydi, ayniqsa ayollarga. Vaziyatlar, muammolar, janjallar sababchisi har doimgiday ayollar. Qachon tushunishimiz mumkin ayollar erkaklarga xo'rlash uchun emas, balki himoya qilish uchun berilganligini.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yigirmanchi asr o'zbek antalogiyasi. 34-bet 2015-yil. Sharq nashriyoti.